MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING INDIVIDUAL QOBILIYATLARINI ANIQLASH VA RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Sapayeva Gulnoza Azimboyevna
Navoiy innovatsiyalar universiteti
"Ijtimoiy gumanitar fanlar" kafedrasi o'qituvchisi
e-mail: gulnozasapayeva1987@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada mavzuga oid xorijiy va mahalliy ilmiy manbalar tahlil qilinib, bolalarning tabiiy qobiliyatlarini erta aniqlash zarurati asoslab berilgan. Tadqiqot davomida mavjud metodik yondashuvlarning afzalliklari va kamchiliklari o'rganilgan, shuningdek, individual yondashuv asosida nazariy model ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha yosh, individual qobiliyat, rivojlantirish, aniqlash metodikasi, pedagogik yondashuv, nazariy tahlil, differensial ta'lim, qobiliyat diagnostikasi.

Аннотация. В данной статье проведён анализ зарубежных и отечественных научных источников по теме, обоснована необходимость раннего выявления природных способностей детей. В ходе исследования изучены преимущества и недостатки существующих методических подходов, а также разработана теоретическая модель на основе индивидуального подхода.

Ключевые слова: дошкольный возраст, индивидуальные способности, развитие, методика выявления, педагогический подход, теоретический анализ, дифференцированное обучение, диагностика способностей.

Abstract. This article analyzes foreign and local scientific sources on the topic and substantiates the necessity of early identification of children's natural abilities. The study examines the advantages and disadvantages of existing methodological approaches and develops a theoretical model based on an individual approach.

Keywords: preschool age, individual ability, development, identification methodology, pedagogical approach, theoretical analysis, differentiated education, ability diagnostics.

KIRISH

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar jarayonida maktabgacha ta'lim tizimi alohida e'tibor markazida turibdi. Ayniqsa, bolalarning yoshiga mos holda individual qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish bo'yicha samarali metodikalar ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yil 8-aprelda qabul qilingan "2020–2030-yillarda O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PQ–4312-son qarorda

ISSN 3030-3907

bolalarning intellektual, ijodiy va jismoniy salohiyatini erta aniqlash va ro‘yobga chiqarishga qaratilgan metodik yondashuvlarni ishlab chiqish va joriy etish asosiy ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan.

Shuningdek, 2022-yil 28-fevraldagi “Maktabgacha va maktab ta’limi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–87-son Farmonda ham bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning iste’dod va qobiliyatlarini erta bosqichda aniqlash hamda maqsadli rivojlantirish uchun ilmiy asoslangan metodikalarga tayanish zarurligi ta’kidlangan[2].

Mazkur hujjatlar ta’lim tizimi oldiga nafaqat sifatli o‘quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish, balki har bir bolaning o‘ziga xos individual salohiyatini aniqlab, uni rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlarni ishlab chiqish vazifasini qo‘yadi. Shu nuqtai nazardan, maktabgacha yoshdagi bolalarning individual qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishga xizmat qiluvchi ilmiy asoslangan metodikani ishlab chiqish va takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Maktabgacha yoshdagi bolalarning individual qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish masalasi dunyo bo‘ylab ko‘plab olimlar tomonidan keng ilmiy o‘rganilgan bo‘lib, bu borada turli metodik yondashuvlar shakllangan.

Xorijiy tadqiqotlar orasida A. Maslou, G. Gardner, J. Guilford, J. Piaget kabi olimlarning nazariy ishlari alohida o‘rin tutadi. Masalan, G. Gardner tomonidan ilgari surilgan ko‘p qirrali intellekt nazariyasiga ko‘ra, har bir bola turli sohalarda — musiqiy, mantiqiy, lingvistik, fazoviy, kinestetik va boshqalar — o‘ziga xos salohiyatga ega bo‘lishi mumkin[4]. Bu yondashuv maktabgacha yoshdagi bolalarning qobiliyatlarini aniqlashda keng qo‘llaniladi. J. Piaget esa bolalar tafakkurining rivojlanish bosqichlarini ilmiy asosda aniqlab, yoshga doir psixologik xususiyatlarga tayangan holda metodik tavsiyalar ishlab chiqqan[7].

O‘zbekistonlik olimlar ham ushbu yo‘nalishda samarali tadqiqotlar olib borganlar. Jumladan, N. Yo‘ldoshev, M. Jo‘rayev, D. Qurbonov, X. Juraev, Z. Axmedova, D. Tursunov kabi pedagog va psixologlar tomonidan maktabgacha yoshdagi bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olish, ularning ijtimoiy-psixologik rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar, qobiliyatlarni erta aniqlash va rivojlantirish metodikasi yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan[3][9]. Z. Axmedovaning ishlari bolalar qobiliyatlarini kuzatish, suhbat, test usullari orqali aniqlash metodlariga bag‘ishlangan bo‘lib, amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, maktabgacha ta’lim tizimida erta rivojlantirish texnologiyalariga oid zamonaviy yondashuvlar – montessori, rejyo-emiliya, valdorf tizimlari ham bolalarning individual qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim o‘rin egallaydi. Bu

ISSN 3030-3907

metodlar asosan bolalarning mustaqil fikrlashi, tanlov erkinligi, muammoli vaziyatlar orqali o‘rganishga urg‘u beradi.

Xulosa qilib aytganda, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bolalar qobiliyatini erta aniqlash va rivojlantirishga doir nazariy qarashlar yetarlicha shakllangan bo‘lsa-da, ularni o‘zbek milliy qadriyatlari, mintaqaviy sharoitlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida integratsiyalash zarurati mavjud. Shu bois ushbu mavzu bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot nazariy-metodik yo‘nalishda olib borilgan bo‘lib, uning asosiy maqsadi – maktabgacha yoshdagi bolalarning individual qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishga oid mavjud ilmiy-nazariy qarashlarni tahlil qilish, ularni tizimlashtirish va milliy ta’lim kontekstida samarali metodik yondashuvlarni asoslab berishdan iboratdir.

Tadqiqot quyidagi nazariy metodlar asosida amalga oshirildi:

1. Tahlil va sintez – maktabgacha ta’lim, bolalar psixologiyasi, qobiliyat nazariyalari, pedagogik diagnostika sohasidagi ilmiy-nazariy manbalar tahlil qilinib, ularning umumiy va farqli jihatlari ajratib ko‘rsatildi. Turli yondashuvlar o‘rtasida bog‘liqlik aniqlanib, ularning uzviy integratsiyasi asosida umumlashmalar ishlab chiqildi.

2. Abstraktsiyalash va umumlashtirish – xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari asosida bolalarning individual qobiliyatlarini aniqlashga oid nazariy model ishlab chiqildi. Bu modelning tarkibiy qismlari sifatida bolalar qobiliyatining turlari, ularning rivojlanish bosqichlari, pedagogik sharoitlar va metodik ta’sir omillari aniqlab berildi.

3. Qiyosiy tahlil – xorijiy va o‘zbek tadqiqotchilarining qobiliyatlarni aniqlash va rivojlantirishga doir metodik yondashuvlari o‘zaro taqqoslab o‘rganildi. Qiyosiy tahlil orqali milliy ta’lim tizimiga mos keluvchi samarali metodik yondashuvlar asoslab berildi.

4. Tizimli yondashuv – maktabgacha yoshdagi bolalarning qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish jarayoni kompleks pedagogik tizim sifatida qaralib, uning tarkibiy qismlari (maqsad, mazmun, metodlar, vositalar, natija) o‘zaro aloqadorlikda nazariy asosda tavsiflandi.

Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmonlari, ta’limga oid davlat dasturlari hamda zamonaviy pedagogik nazariyalar asosiy konseptual asos sifatida xizmat qildi. Shuningdek, psixologik-pedagogik fanlarda shakllangan ilg‘or nazariyalar (ko‘p qirrali intellekt nazariyasi, rivojlanuvchi

ISSN 3030-3907

ta’lim, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv) mazmuniy asos sifatida tadqiqotga integratsiya qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha yosh – bu bolaning individual qobiliyatlari shakllanib boradigan eng muhim va nozik davr hisoblanadi. Turli ilmiy manbalar tahlili, xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning yondashuvlari shuni ko‘rsatadiki, bolalarning qobiliyatlarini erta aniqlash va yo‘naltirish, ularning intellektual, ijodiy, kommunikativ salohiyatini rivojlantirish uchun ilmiy asoslangan metodik yondashuvlar zarurdir.

Tadqiqotda aniqlanishicha, mavjud metodikalar ko‘p hollarda umumiy rivojlanishga yo‘naltirilgan bo‘lib, individual farqlarni chuqur inobatga olmasligi kuzatiladi. Shu bois maktabgacha ta’lim tizimida har bir bolaning o‘ziga xos psixologik-pedagogik ehtiyojlarini hisobga oluvchi differensial yondashuvga asoslangan metodikalarni ishlab chiqish dolzarbdir.

Nazariy jihatdan asoslab chiqilgan model shuni ko‘rsatadiki, bolalarning qobiliyatlarini aniqlashda quyidagi omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega:

- bolaning faoliyatga bo‘lgan tabiiy qiziqishi;
- mustaqil tanlov va ijodiy fikrlash imkoniyatlari;
- pedagog tomonidan individual yondashuv;
- oilaviy va ijtimoiy muhitdagi psixologik qo‘llab-quvvatlash.

Shuningdek, xorijiy amaliyotda keng qo‘llanilayotgan Montessori, Reggio Emilia va boshqa alternativ ta’lim texnologiyalarining ayrim unsurlarini milliy tizimga moslashtirish orqali bolalarda mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik, o‘z qobiliyatlarini namoyon etish salohiyatini oshirish mumkinligi aniqlangan.

Quyidagi natijalarga erishildi:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarning qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish zarurati davlat siyosati darajasida belgilangan ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

2. Tadqiqotda mavjud nazariy qarashlar va metodikalar tahlili asosida individual yondashuvga asoslangan nazariy model ishlab chiqildi.

3. Mavjud metodikalarni milliy ta’lim tizimiga mos holda qayta ko‘rib chiqish va takomillashtirish orqali bolalar qobiliyatlarini erta bosqichda aniqlab, yo‘naltirish imkoniyati mavjud.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan nazariy tadqiqotlar maktabgacha yoshdagi bolalarning individual qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish jarayoni murakkab, ko‘p omilli va tizimli yondashuvni talab qiladigan pedagogik muammo ekanini ko‘rsatdi.

ISSN 3030-3907

Bolalarning tabiiy qobiliyatlarini erta bosqichda aniqlash ularning keyingi shaxsiy, ijtimoiy va intellektual rivojlanishiga kuchli asos yaratadi.

Tadqiqot davomida mavjud ilmiy-nazariy manbalar tahlil qilinib, qobiliyatlarni aniqlashda qo‘llanilayotgan yondashuvlar, metodik vositalar va ularga xos kamchiliklar aniqlandi. Shuningdek, individual yondashuvga asoslangan metodik modelning nazariy asoslari ishlab chiqildi.

Tadqiqotimiz natijalariga ko‘ra quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Pedagogik amaliyotga individual yondashuvni joriy etish – tarbiyachilar va metodistlar har bir bolaning qiziqishi, faollik darajasi va intellektual salohiyatini hisobga olgan holda mashg‘ulotlarni tashkil etishlari zarur.

2. Metodik qo‘llanmalarning takomillashtirilishi – mavjud test va kuzatuv uslublarini milliy mentalitetga moslashtirish, bolalarning emotsional holati va motivatsiyasini inobatga olgan yangi metodikalar ishlab chiqish lozim.

3. Tarbiyachilar malakasini oshirish – pedagoglarni bolaning qobiliyatini erta aniqlash va rivojlantirishga doir zamonaviy yondashuvlar bilan tanishtirish, ular uchun maxsus o‘quv dasturlari va treninglar tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

4. Ota-onalar bilan hamkorlikni mustahkamlash – bolalarning qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonida oilaning roli muhim bo‘lgani sababli, ota-onalar bilan tizimli maslahatlar va seminarlar o‘tkazish tavsiya etiladi.

5. Ilmiy izlanishlarni kengaytirish – maktabgacha ta’lim tizimida individual yondashuvga asoslangan amaliy tadqiqotlar sonini oshirish, milliy diagnostika vositalarini yaratish ustida izlanishlar davom ettirilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son farmoni // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2022 y., 4-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4477-son qarori // www.lex.uz.

3. Ahmedova Z. Qobiliyatli bolalarni aniqlash va rivojlantirish muammolari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 160 b.

4. Gardner, H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. – New York: Basic Books, 1983. – 528 p.

5. Piaget, J. The Psychology of the Child. – New York: Basic Books, 1969. – 246 p.

ISSN 3030-3907

6. Qurbonov D. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2021. – 220 b.

7. Tursunov D. Bolalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning psixologik asoslari // Pedagogika fanlari jurnali. – 2021. – №2. – B. 45–49.

8. Yuldoshev N. Ta’lim jarayonida qobiliyatli bolalar bilan ishlashning uslubiy asoslari // O‘zMU ilmiy xabarlari. – 2020. – №1. – B. 88–92.

ISSN 3030-3907